



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 230 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
<i>Abdiqayumova Malika</i>	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
<i>Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi</i>	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
<i>Atamirzayeva Ezoza</i>	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
<i>Aminova Asilaxon Sobir qizi</i>	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
<i>Уразова М. Б., Абатова У. Б.</i>	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
<i>Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Gaipova Akjunis Qayratovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
<i>Alimov Bekzod Nematovich</i>	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
<i>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</i>	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
<i>Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi</i>	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
<i>Yusupova Mukhabbat Anatolyevna</i>	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
<i>Erkinova Sevara Najmiddin qiz</i>	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
<i>Gulsara Khakimova</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
<i>Hikmatova Jamila Fatox qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
<i>I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna</i>	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
<i>Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi</i>	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
<i>Murodova Farangis G'anisherovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
<i>Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna</i>	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
<i>Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi</i>	
Sensor integratsiya autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
<i>Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
<i>Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi</i>	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
<i>Улугмурадова Шохсанам</i>	
Shaxs o'z-o'zini anglashining ijtimoiy-psixologik jihatlari	105
<i>Bobonazarov Oybek Shoyim o'g'li</i>	
Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990yy).....	108
<i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>	
Tabiatshunoslik darslarida steam yondashuvi asosida ta'limni tashkil etish metodlari	111
<i>Gulnora Narmatova Tojiyevna</i>	
AI-Mediated Coil in Oral English Teacher Education: a Didactic Model for Developing Intercultural Communicative Competence.....	115
<i>Mukhammadiyeva Khalima Saidakhmadovna</i>	
Pedagogik faoliyatda kasbiy stress jarayonining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	119
<i>Xotamova Madinabonu Iloxjon qizi</i>	
Pedagogik mahorat fani asosida bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	123
<i>Xurramova Mohidil Baxtiyorovna</i>	
Bo'lajak kutubxonachilarda ilm-fanga oid bilimlarni o'zlashtirish malakasini shakllantirish	126
<i>O'rozov Abdurasul Norboyevich</i>	
Методологические подходы к развитию духовно-творческого потенциала детей младшего школьного возраста	130
<i>Хасанова Гулшод Касимовна</i>	
Pedagogik ta'lim transformatsiyasida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	134
<i>Rustamova Shoxista Omonjonovna</i>	
O'rta maktab yoshidagi o'quvchilarda voleybol mashg'ulotlarining psixoemotsional holat va ijtimoiy faollikka ta'siri	138
<i>Xonimqulova Durdona</i>	
Farzandlar tarbiyasida otalik va onalik hissining shakllanishining o'ziga xosligi	141
<i>Tursunboyeva Gavharoy Abdivohid qizi</i>	
O'quv jarayonida raqamli kontent (elektron darslik, multimedia materiallari) yaratish texnologiyalari.....	145
<i>Quvatov Shuxrat Akmurodovich, Rashidov Anvarjon Sharipovich</i>	
Scratch dasturida harflarni vizuallashtirish orqali 1-sinf o'quvchilarining tasavvurlarini rivojlantirish usullarini takomillashtirish.....	150
<i>Normurodova Sadoqat Xoliqulovna</i>	
Vaqttni boshqarish hamda to'g'ri taqsimlashning pedagog hayoti va faoliyatidagi ahamiyati.....	155
<i>Tursunova Nilufar</i>	
Sun'iy intellektning ingliz tili o'qitishdagi roli	159
<i>Burxonova Aziza Ikhtiyorovna, Negova Feruza Sharifovna</i>	
Разработка системы адаптивной генерации контрольных вопросов из учебных материалов на узбекском языке на основе гибридного подхода ИИ и таксономии блума	162
<i>Бегалиев Жалолиддин Камолитдинович, Маматов Ислонбек Ильесович</i>	
Применение данных беспилотной авиации для обновления картографических данных	168
<i>Хакимов Дониёр Бахтиёр угли, Бурунова Муниса Баходировна</i>	
The Role and Significance of the Acemological Approach in the Managerial Activity of School Principals.....	172
<i>Normurodova Aziza Zuxriddin qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda tarbiya darslarini samarali tashkil etishga o'rgatish: mazmuni, shakli va metodlari ..	178
<i>Sheraliyeva Nasiba Alimkulovna</i>	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda ota-ona tarbiya uslublarining pedagogik imkoniyatlari.....	184
<i>Ashurova Aziza Erkinovna</i>	
Mintaqaviy sanoat korxonalarining biznes jarayonlarini tahlil qilish va baholashning zamonaviy usullari (BPM, Lean, Six Sigma yondashuvlari misolida)	188
<i>Azimova Maxfuza Rashidovna</i>	
O'zbekistonda turli etnik guruhlarda mehnat motivatsiyasining qiyosiy tahlili.....	193
<i>Erkinova Sevara Najmiddin qizi, Saidakbarova E'zozaxon Muzaffar qizi</i>	
"Geogebra" dasturi yordamida geometriya va matematik analiz kursini o'qitishda vizual tafakkurni rivojlantirish metodikasi.....	196
<i>Fayzullayeva E'zoza O'tkir qizi</i>	
Umumta'lim maktablarida raqamli transformatsiya texnologiyalarini qo'llashning zarurati.....	200
<i>Musurmanova Shodiya Xolmurotovna</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish	204
<i>O'ktamov Madadjon O'ktam o'g'li, Boymurodova Shahzoda Alisher qizi</i>	
Gimnastikada akrobatik mashqlarni rivojlantirish metodikasi	208
<i>Raxmatova Nodira Muxtorjon qizi</i>	
Suggestiv metodlar asosida xulqi og'ishgan bolalar uchun tarbiyaviy mashg'ulotlarni loyihalash	212
<i>Shermatova Manzura Ikromjanovna</i>	
Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorlash ...	216
<i>Sanayeva S. B., Toshqulova Z. U.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	220
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Понятие искусственного интеллекта в контексте образования и его педагогические функции	224
<i>Каримова Сабина Собировна</i>	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOY XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONA TARBIYA USLUBLARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Ashurova Aziza Erkinovna

Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda ota-ona tarbiya uslublarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda oiladagi tarbiya muhiti, ota-onaning bolaga munosabat shakllari, nazorat, mehr, talabchanlik, muloqot va rag'batlantirish omillarining bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, demokratik, avtoritar, liberal va befarq tarbiya uslublarining maktabgacha yoshdagi bolalarning xulqiy odatlari, tengdoshlar bilan munosabati, kattalarga hurmati, hamkorlik, mustaqillik va mas'uliyat hissi shakllanishidagi o'rni qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada ota-ona tarbiya uslublarining pedagogik imkoniyatlari oilaviy muhit, emotsional qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy me'yorlarni singdirish va shaxsiy namuna orqali amalga oshishi asoslab beriladi. Tahlil natijasida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini kuchaytirish, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish hamda bolada ijobiy ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, ijtimoiy xulq-atvor, ota-ona, tarbiya uslubi, oilaviy muhit, pedagogik imkoniyat, ijtimoiylashuv, muloqot, xulqiy me'yor, hamkorlik.

Abstract: This article analyzes the pedagogical possibilities of parenting styles in shaping social behavior in preschool children. The study examines the influence of the family educational environment, parental attitudes toward the child, control, affection, demandingness, communication, and encouragement on the child's socialization process. Special attention is given to the comparative analysis of democratic, authoritarian, permissive, and indifferent parenting styles and their role in the development of children's behavioral habits, peer relationships, respect for adults, cooperation, independence, and sense of responsibility. The article argues that the pedagogical potential of parenting styles is realized through the family atmosphere, emotional support, internalization of social norms, and parental role modeling. The findings indicate the necessity of strengthening cooperation between preschool educational institutions and families, improving parents' pedagogical culture, and developing methodological recommendations aimed at fostering positive social behavior in children.

Key words: preschool age, social behavior, parents, parenting style, family environment, pedagogical potential, socialization, communication, behavioral norms, cooperation.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические возможности стилей родительского воспитания в формировании социального поведения у детей дошкольного возраста. В исследовании освещается влияние семейной воспитательной среды, форм отношения родителей к ребёнку, контроля, любви, требовательности, общения и поощрения на процесс социализации ребёнка. Особое внимание уделяется сравнительному анализу демократического, авторитарного, либерального и безразличного стилей воспитания, а также их роли в формировании поведенческих привычек, отношений со сверстниками, уважения к взрослым, сотрудничества, самостоятельности и чувства ответственности у дошкольников. В статье обосновывается, что педагогические возможности родительских стилей воспитания реализуются через семейную атмосферу, эмоциональную поддержку, усвоение социальных норм и личный пример родителей. В результате исследования делается вывод о необходимости усиления сотрудничества семьи и дошкольной образовательной организации, повышения педагогической культуры родителей и разработки методических рекомендаций, направленных на формирование у ребёнка положительного социального поведения.

Ключевые слова: дошкольный возраст, социальное поведение, родители, стиль воспитания, семейная среда, педагогические возможности, социализация, общение, поведенческие нормы, сотрудничество.

KIRISH

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish ko'nikmalari, jamiyatda qabul qilingan xulqiy me'yorlarga munosabati, hissiy boshqaruvi, hamkorlik qilish, navbat kutish, o'rtoqlashish, yordam berish, boshqalarning fikrini hisobga olish kabi ijtimoiy sifatlari shakllana boshlaydi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri sifatida e'tirof etiladi.



Bolaning ijtimoiy xulq-atvori tasodifan vujudga kelmaydi. U, avvalo, oila muhitida, ota-ona bilan kundalik munosabatlar jarayonida, ularning talab va mehr uyg'unligida, rag'bat va cheklovlar tizimida, shuningdek, shaxsiy namuna asosida tarkib topadi. Oila bolaning birlamchi ijtimoiylashuv makoni bo'lib, unda bola ilk marta "mumkin" va "mumkin emas", "yaxshi" va "yomon", "hurmat", "mas'uliyat", "hamkorlik", "mehr", "tartib" kabi tushunchalarni amaliy holatda anglaydi. Demak, ota-ona tomonidan tanlangan tarbiya uslubi bolaning nafaqat individual psixik rivojlanishiga, balki uning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy xulq me'yorlarini o'zlashtirishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda oilalardagi tarbiya uslublarining xilma-xilligi, axborot oqimining kuchayishi, oilaviy munosabatlar mazmunining o'zgarishi, ota-onalarning pedagogik tayyorgarlik darajasidagi tafovutlar bolalarning xulqiy shakllanishiga turlicha ta'sir qilmoqda.

Ayrim oilalarda haddan tashqari nazorat va qat'iy talab ustuvor bo'lsa, ayrimlarida cheksiz erkinlik yoki befarqlik kuzatiladi. Bunday sharoitda ota-ona tarbiya uslublarining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlash hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda samarali yondashuvlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda ota-ona tarbiya uslublarining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyatini yoritish hamda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi doirasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda ota-ona tarbiya uslublarining pedagogik imkoniyatlarini o'rganish uchun bir necha o'zaro bog'liq ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, nazariy tahlil metodi yordamida pedagogika, oilaviy tarbiya, maktabgacha ta'lim, bolalar psixologiyasi va ijtimoiylashuvga oid ilmiy manbalar o'rganildi. Ushbu metod orqali "ijtimoiy xulq-atvor", "ota-ona tarbiya uslubi", "oilaviy muhit", "pedagogik imkoniyat", "ijtimoiylashuv" kabi tayanch tushunchalarning mazmuni aniqlashtirildi. Qiyosiy tahlil metodi asosida ota-onalarning demokratik, avtoritar, liberal va befarq tarbiya uslublari bir-biri bilan taqqoslanib, ularning bolaning ijtimoiy xulqiga ko'rsatadigan ta'siri baholandi. Mazkur yondashuv turli tarbiya uslublarining bolada intizom, mustaqillik, hamkorlik, hissiy barqarorlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi o'rnini aniqlash imkonini berdi.

Tavsifiy metod orqali oiladagi kundalik tarbiyaviy vaziyatlar, ota-onaning talabchanlik va mehr ko'rsatish shakllari, rag'bat va jazo usullarining bolaning xulqiy odatlariga ta'siri izohlandi. Bu metod yordamida tarbiya uslublarining amaliy ko'rinishlari va ularning pedagogik salohiyati tizimli yoritildi. Tizimli yondashuv tadqiqotning muhim metodologik asoslaridan biri bo'lib, unda bola xulq-atvori oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, tengdoshlar muhiti va ijtimoiy me'yorlar bilan o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi. Shu asosda ota-ona tarbiya uslubi bolaning ijtimoiy xulqini shakllantiruvchi alohida omil emas, balki ijtimoiylashuv tizimining markaziy bo'g'inlaridan biri sifatida talqin qilindi.

Shuningdek, pedagogik umumlashtirish metodi asosida oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligiga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, bolaga nisbatan bir xil tarbiyaviy yondashuvni shakllantirish va ijobiy ijtimoiy xulq-atvorni mustahkamlashga qaratildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogika va psixologiyada bolaning ijtimoiy rivojlanishida oilaning o'rnini alohida e'tirof etiladi. Ilmiy manbalarda oila bola uchun birlamchi tarbiya instituti, qadriyatlar manbai va ijtimoiy tajribani egallash muhiti sifatida talqin qilinadi. Aynan oilada bola ilk muloqot madaniyatini, hissiy javob qaytarish usullarini, xatti-harakatni boshqarish qoidalarini, kattalar va tengdoshlar bilan munosabat me'yorlarini o'zlashtira boshlaydi. Shu sababli ota-onaning tarbiya uslubi bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiluvchi yetakchi omillardan biridir.

Tarbiyaning oilaviy uslublarini ilmiy tasniflashda psixologik va pedagogik adabiyotlarda, asosan, demokratik, avtoritar, liberal hamda befarq uslublar ajratiladi. Demokratik uslubda mehr va talab uyg'unligi, muloqotga ochiqlik, tushuntirish, hamkorlik va qo'llab-quvvatlash ustuvor bo'ladi. Avtoritar uslubda esa buyruqbozlik, qat'iy nazorat, keskin taqiqlar va bolaning fikrini kam hisobga olish kuzatiladi. Liberal uslubda erkinlik keng beriladi, biroq nazorat va izchil talab sust bo'ladi. Befarq uslubda esa ota-onaning hissiy ishtiroki va tarbiyaviy e'tibori past darajada namoyon bo'ladi.

Ilmiy qarashlarga ko'ra, demokratik tarbiya uslubi bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi uchun nisbatan qulay sharoit yaratadi. Chunki bunda bola o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarni tinglash, kelishuvga erishish, mas'uliyatni his qilish va xulq me'yorlarini ichki ehtiyoj sifatida qabul qilishga o'rganadi. Bunda ota-onaning nazorati jazolashga emas, yo'naltirishga; talabi bosimga emas, tushuntirishga; munosabati esa cheklashga emas, rivojlantirishga qaratiladi.

Avtoritar tarbiya uslubi esa tashqi intizomni ta'minlashi mumkin bo'lsa-da, ko'pincha bolada qo'rquv, tortinchoqlik, ichki bosim, mustaqil qaror qabul qilishdagi qiyinchilik yoki, aksincha, tajovuzkor javob reaksiyalarini yuzaga keltiradi. Liberal uslub shaxs erkinligini cheklamasligi bilan ijobiy ko'rinsa-da, maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zini boshqarish, qoidaga amal qilish va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish uchun doimo yetarli emas. Befarq uslub esa bola rivojlanishi uchun eng noqulay tarbiyaviy muhitlardan biri bo'lib, unda emotsional yetishmovchilik, e'tiborsizlik va ijtimoiy chekinish xavfi ortadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ota-ona tarbiya uslublari bo'yicha tadqiqotlar ko'p bo'lsa-da, maktabgacha yoshdagi bolalarda aynan ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlarni tizimli yoritish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, oiladagi tarbiya uslublarini maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyaviy jarayon bilan uyg'unlashtirish, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish hamda oilaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvor quyidagi asosiy ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi:

- kattalar bilan odobli munosabatga kirisha olish; tengdoshlar bilan hamkorlik qilish;
- o'yin va mashg'ulotlarda qoidalarga rioya etish; hissiyotlarni nazorat qila olish;
- boshqalarning manfaatini inobatga olish; yordam so'rash va yordam ko'rsatish;
- nizoli vaziyatlarda maqbul xulq modelini tanlay olish.

Mazkur sifatlarning shakllanishida ota-ona tarbiya uslublari turlicha pedagogik imkoniyatlarga ega. Demokratik tarbiya uslubining pedagogik imkoniyatlari. Demokratik uslub bolada ijtimoiy me'yorlarni ongli ravishda qabul qilishga yordam beradi. Bunda ota-ona bola bilan muloqotga kirishadi, qoidaning sababini tushuntiradi, uning hissiyatini tinglaydi va xatti-harakatini baholashda shaxsini emas, aynan vaziyatni muhokama qiladi. Bunday oilalarda bola o'zini qadrlangan subyekt sifatida his etadi, natijada unda o'ziga ishonch, empatiya, muloqotchanlik va mas'uliyat kabi sifatlari faol shakllanadi.

Avtoritar tarbiya uslubining ta'siri. Avtoritar uslubda ota-ona nazorati kuchli, talablar qat'iy, ammo emotsional qo'llab-quvvatlash nisbatan kam bo'ladi. Bunday muhitda ulg'ayayotgan bolalar ko'pincha tashqi tartibga amal qilgan holda ichki ijtimoiy motivatsiyani yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Ular kattalar nazorati ostida intizomli bo'lib ko'rinsa-da, erkin vaziyatda tengdoshlariga nisbatan qo'pollik, o'z fikrini himoya qila olmaslik yoki keskin qarshilik ko'rsatish holatlari kuzatilishi mumkin. Liberal tarbiya uslubining imkoniyat va cheklovlari. Liberal uslub bolaga mustaqillik va erkinlik berishi bilan ahamiyatli. Biroq maktabgacha yoshda bola hali xulqiy me'yorlarni mustaqil ravishda to'liq boshqara olmaydi. Shu sababli cheklanmagan erkinlik ayrim hollarda injiqlik, o'zboshimchalik, qoidalarga bo'ysunmaslik, navbat kutmaslik yoki boshqalarning huquqlarini tan olmaslik kabi xatti-harakatlarni kuchaytirishi mumkin. Demak, bu uslubda ijobiy natija bo'lishi uchun erkinlik pedagogik nazorat va muloqot bilan uyg'unlashishi zarur.

Befarq tarbiya uslubining salbiy oqibatlari. Befarq uslubda ota-onaning hissiy yaqinligi va tarbiyaviy ishtiroki past bo'ladi. Natijada bola o'z xulqini boshqarishda yetarli yo'nalish ololmaydi, ijtimoiy me'yorlarni ichkilashtirishda qiyinchilikka duch keladi. Bunday sharoit bolada ishonchsizlik, e'tibor talabi, agressivlik, tortinchoqlik yoki ijtimoiy passivlik kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Tahlillar asosida ota-ona tarbiya uslublarining pedagogik imkoniyatlari quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lishi aniqlandi:

- bolaga xulq me'yorlarini singdirish;
- hissiy xavfsiz muhit yaratish;
- muloqot madaniyatini rivojlantirish;
- ijtimoiy rollarni o'zlashtirishga yordam berish;
- hamkorlik va mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirish;
- ijobiy xatti-harakatni rag'batlantirish;
- salbiy xulqni konstruktiv yo'l bilan tuzatish.

Demak, ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda eng samarali yo'l ota-onaning mehr, nazorat, talabchanlik va hurmatni o'zaro uyg'unlashtira bilishidir.



Olingan natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishi ko'p jihatdan oiladagi tarbiya madaniyatiga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Bolaning jamiyatdagi ilk xulqiy modeli ko'pincha ota-onaning kundalik muomalasi, gapirish uslubi, nizoni hal etish madaniyati, boshqalarga munosabati va emotsional reaksiyalaridan nusxa oladi. Shu ma'noda ota-ona tarbiya uslubi nafaqat tarbiyaviy vosita, balki bolaga bevosita namoyish etiladigan ijtimoiy xulq namunasi hamdir.

Shuningdek, ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish jarayoni faqat taqiq va buyruqlar bilan emas, balki tushuntirish, suhbat, birgalikdagi faoliyat, rag'batlantirish va shaxsiy namuna orqali samarali kechishi aniqlanadi. Maktabgacha yoshdagi bola qoidalarni abstrakt tarzda emas, balki amaliy holat va hissiy tajriba orqali o'zlashtiradi. Shu bois oilada "rahmat aytish", "uzr so'rash", "navbat kutish", "o'rtoqlashish", "yordam berish", "hurmat bilan gapirish" kabi ko'nikmalar muntazam mashq qildirilishi zarur.

Muhokama natijalari ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Chunki ko'plab oilalarda tarbiya intuitiv ravishda, oldingi tajribalar yoki an'anaviy qarashlar asosida olib boriladi. Holbuki, zamonaviy pedagogik yondashuv bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishni, jazodan ko'ra tushuntirishni, bosimdan ko'ra hamkorlikni, befarqlikdan ko'ra faol ishtirokni talab etadi. Shundan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan ishlashning quyidagi shakllarini kuchaytirish maqsadga muvofiq:

- ota-onalar uchun pedagogik seminar va treninglar;
- oilaviy tarbiya bo'yicha suhbat va maslahatlar;
- bola xulqidagi muammoli vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish;
- "oila-bog'cha" hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish;
- ijtimoiy xulqni rivojlantiruvchi uy vazifalari va tavsiyalar berish.

Bunday hamkorlik orqali oiladagi tarbiya uslubi va ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy talablar o'rtasida izchillik yuzaga keladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda ota-ona tarbiya uslublari muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Ular bola shaxsining ijtimoiylashuvi, xulqiy me'yorlarni o'zlashtirishi, hamkorlikka kirishishi, mas'uliyatni his qilishi va emotsional jihatdan barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, demokratik tarbiya uslubi maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish uchun eng qulay pedagogik sharoit yaratadi. Avtoritar, liberal va befarq uslublarni esa ayrim holatlarda qisqa muddatli xulqiy natijalarni bersada, ijtimoiy yetuklik, ichki mas'uliyat va muloqot madaniyatini rivojlantirishda cheklangan imkoniyatlarga ega.

Kelgusida maktabgacha ta'lim tizimida ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, oiladagi tarbiya uslublarni ilmiy asosda takomillashtirish, bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish bo'yicha amaliy dastur va metodik tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qoladi. Faqat oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi izchil hamkorlik orqaligina bolada ijobiy ijtimoiy fazilatlar, barqaror xulqiy me'yorlar va sog'lom muloqot madaniyatini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baumrind, D. Child Care Practices Antecedent Three Patterns of Preschool Behavior. Genetic Psychology Monographs, 1967.
2. Maccoby, E. E., Martin, J. A. Socialization in the Context of the Family: Parent-Child Interaction. In: Handbook of Child Psychology. New York, 1983.
3. Bronfenbrenner, U. The Ecology of Human Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. Bandura, A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
6. Berk, L. E. Child Development. Boston: Pearson Education, 2013.
7. Santrock, J. W. Life-Span Development. New York: McGraw-Hill Education, 2017.
8. Grusec, J. E., Hastings, P. D. Handbook of Socialization: Theory and Research. New York: Guilford Press, 2015.
9. Musurmonova, O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
10. Hasanboyeva, O., To'xtayeva, X., Shirinov, M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.